

**TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA
INNOVATSION TA’LIM TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI
TA’LIM SIFATINI OSHIRISH**

Ahmedov Xoshim Normamatovich

Jizzax viloyati Paxtakor tumani Bog’ishamol MFY E.Xolmatov kochasi 1-uy

Tayanch so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiya, ta’lim shakli, o‘quvchi, faoliyat, an’anaviy ta’lim, psixologiya, pedagogning kasbiy mahorati va boshqalar.

Maqola va ishning maqsadi. Ta’lim muassasalarida darslar o’tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash natijasida samarali natjalarga erishish va o‘qituvchilar metodikasini rivojlantirish

Ishning ob’yekti: Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, yoshlari va o‘quv mashg’ulotlarining olib borilishi .

Maqola yozish maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalar O‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilgan.

Bolaning Erkin fikrlash, ayniqsa tasavvur etish, faraz qila olish qobilyatini rivojlantirish, ko‘nikma va malakalarni vujudga keltirish muxum axamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi o‘z darslarida bolalarga chuqur bilim berish uchun axborot va pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muofiqdir. Darslar o’tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash natijasida samarali natjalarga erishadi. Bugungi kunda ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga aloxida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, innovatsion texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kegligida

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar o‘quv tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab , tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyixalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan, innovatsion texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo’llashga asoslanganligi sababli, ularning qo’llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi. Har qanday innovatsion texnologiyaning o‘quv –tarbiya jarayonida qo’llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda , bolani kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog‘liq.

Innovatsion texnologiya asosida o‘tkaziladigan mashg’ulotlar bolalarning muxum xayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun xam ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish

uslublari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o’rni va axamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiya va ularning ta’limda qo’llanilishiga oid bilimlar, tajriba bolalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun ilg’or innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratish va o’zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyixalarini shakllantirish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarurligi aloxida takidlangan, shu bilan birga barkamol avlod tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish jarayonida tayyorlanayotgan kadrlarning mustaqil va ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Chunki texnika va texnologiyalarning kun sayin o’zgarishida va bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan shaxs kelajakda muammolarni o’zi mustaqil hal qila oladi. Shaxsdagi mustaqil o’rganish qobiliyatlarini rivojlantirish birinchidan, ta’lim shakli, usul va vositalari yordamida amalga oshirilsa, ikkinchidan, uning o’z his-tuyg’ulari, qiziqishi, intilishi, xohishi va ehtiyojini qondirish yo’lidagi hatti-harakatlari orqali shakllanadi. Shuning uchun ham o’quv-tarbiya jarayonida o’quvchilarning bilim olish va o’rganish faoliyatini faollashtirish o’qituvchi faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o’qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg’ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so’z texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so’zdan - “texnos” (techne) - san’at, hunar va “logos” (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma’nosini anglatadi. “Innovatsiya”-inglizcha innovation - so’zidan olingan bo’lib, “yangilik” yoki “yangilik kiritish” ma’nosini bildiradi. Biroq bu ifoda zamонавиев texnologik jarayonni to’liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko’zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlari (xom ashyo) ga bosqichma-bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchining faoliyatidir. Ana shu ta’rifni ishimiz mavzusiga ko’chirish mumkin, ya’ni: ilg’or pedagogik texnologiya - bu o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan ko’rinib turibdiki, ilg’or innovatsion pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta’riflar soni pedagogik adabiyotlarda nixoyatda ko’pdir. Pedagogik nashrlarda “texnologiya” atamasining xilma-xil ko’rinishlarini uchratish mumkin: “o’qitish texnologiyasi”, “o’quv jarayoni texnologiyasi”, “ma’lumot texnologiyasi” va hokazo.

Ilg‘or pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonining o‘zaro bog‘liq qisimlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta’minkaydi. Yoxud o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir. Texnologiya o‘zining egiluvchanligi, natijalarning turg‘unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Innovatsion texnologiya ta’lim sharoitida o‘quvchilarda o‘qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotlarga tayanib, mustaqil bilim olish va o‘rganish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga e’tibor qaratish juda muhim hisoblanadi. Agar ta’lim oluvchida ushbu xususiyatlar shakllantirilmasa shaxs imkoniyatlari ro‘yobga chiqmay qoladi. Bu imkoniyatlarni faqat shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash orqali ro‘yobga chiqarish mumkin. Innovatsion o‘qitish texnologiyalarini, an’anaviy o‘qitish texnologiyalaridan farqli ravishda shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv materialini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilmaydi, balki o‘quv materiali mazmunidagi mantiqni va haqiqatni izlab topishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu esa u “pedagog-topshiriq-o‘quvchi” tizimidagi faoliyat yuritishni talab etadi. Masalan, pedagog muammoli vaziyat orqali topshiriq qo‘yadi, o‘quvchi esa uni mustaqil tarzda yechishga harakat qiladi. Bu ilg‘or pedagogik o‘qitish texnologiyasiga xos xususiyatdir. Biz faollashtirishni ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri sifatida qaraymiz. Faol bu ishchan, xarakatchan ma’nosini anglatadi, ya’ni shaxsning aqli va irodasini kuchaytirish orqali uning bilim olish va o‘rgatish, faollashtirish qobiliyati tushuniladi. Faol ta’lim deganda, - biz ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchilarining ongli va faol ishtiroki, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar majmuyini tushunamiz. Ta’lim oluvchining umumiyy faolligi uning bilim va ko‘nikmalarni egallash, jarayon va hodisalarining mohiyatini anglab olishga qaratilgan faoliyatini bildiradi.

Ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarining bilim imkoniyatlari, mustaqil ishslash qobiliyatlarini, ijodkorligini hamda amaliy ko‘nikmalarni o‘rganish darajalarini rivojlantirishga darsni sifatli o‘zlashtirishiga erishish mumkin.

Innovatsion ta’lim usullarisiz maxsus fanlardan qo‘yilgan o‘quv maqsadiga erishishda bilim olish va o‘rganish faoliyatini faollashtirishga, ta’lim natijalariga va sifatiga erishish qiyin.

Innovatsion ta’lim usullaridan o‘rinli va maqsadli foydalanilganda pirovard natija-ta’lim samaradorligi an’anaviy ta’limdagiga nisbatan har doim yuqori bo‘ladi. Eng asosiysi o‘quvchida mustaqil fikrlash, turli masalalarni va muammolarni mustaqil yechimini topish, o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi malakalarni shakllanishini ta’minkaydi.

Innovatsion texnologiyalar to‘g‘risidagi tushuncha. An’anaviy ta’lim o‘quvchilarini tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatadi, unda o‘qituvchi shaxsi asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib ,o‘quvchi esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo‘lib kelgan . Ilmiy –texnika

revolyusiya davrida o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ilmiy axborot xajmining keskin oshib ketishi bilan an’naviy ta’lim kam samarali bo‘lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritishga qiziqish toboro kuchayib bormoqda. Talim sifatini oshirishda talim beruvchi va talim oluvchilarning o‘zaro hamkorligi muhum xisoblanadi, ta’lim oluvchi ham ta’lim jarayonida subektga aylanadi. Bu- faol talim olish ijodiy, xususan bilimlarni amalda qo‘llash, jamoa bo‘lib va kichik guruxlar tarkibida ishslash, bilimlarni mustaqil egallash, muammoni izlash va yechish uchun o‘quv materiallarni qo‘llash, rejalashtirish va amalga oshirishni anglatadi.

Fanlardan o‘tkaziladigan mustaqil talimning maqsadi o‘quvchilarda nazariy olgan bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni oshirish, mustaxkamlash, kasbga yo‘naltirish xamda xayotga tatbiq qilishdan iborat Xar bir ta’lim jarayonidan maqsad turli ta’lim metodlariga asoslanib turli xil usulda sifatli ta’lim berish va ko‘zlangan maqsadga erishish xisoblanadi. .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat .O‘quv metodik qo‘llanma.H.Abdukarimov,O.Suvonov Toshkent 2010
3. Pedagogik texnologiyalarni loyixalashtirish va rejalashtirish:O‘quv uslubiy qo‘llanma./ tuzuvchi mualliflar L.V.Golish, D.M.Fayzullaeva. Toshkent., 2012
4. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U.: Toshkent 2012.

Elektron ta’lim resurslari:

- 1.www.Ziyonet.uz
- 2.www.edu.uz
3. www.gov.uz